

MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA

Markaziy Osiyo o‘z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda.



Bu — o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa‘y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o‘zaro ishonch muhitida tobora qizg‘in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko‘lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatdir.

Hamkorligimizni mintaqaviy yaqinlashuvning yangi bosqichiga olib chiqish uchun davlatlarimiz darajasida sharoit yaratilganini ko‘rib turibmiz. Oldimizda erishilgan kelishuvlarni fuqarolar va biznes uchun aniq natija va qulaylik-larga aylantirishdek strategik vazifa turibdi. Markaziy Osiyo qarorlar shunchaki hujjat sifatida emas, balki mintqa mamlakatlarida barqaror rivojlanishni ta‘minlash va odamlarning kundalik hayotini yaxshilash uchun qabul qilinadigan, imkoniyatlardan birgalikda foydalaniladigan umumiy makonga aylanishi kerak.

Nisbatan qisqa muddatda mintaqaviy hamkorlik va ishonchli muloqotning samarali mexanizmiga aylangan **Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari** mintaqamizda bo‘layotgan o‘zgarishlarning yorqin timsolidir. Ushbu

uchrashuvlar Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo‘yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy muloqot maydoni sifatida shakllandi.

Bo‘ljak **Toshkent sammiti** barqaror, o‘zaro bog‘liq va farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etishda yangi muhim bosqichni boshlab beradi.

Davlat rahbarlarining Toshkentdagi uchrashuvi biz boshlagan yo‘ning davomi sifatida mamlakatlarimizning o‘zaro anglashuv va sheriklik ruhiga sodiqligini tasdiqlashi, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda tub burilish yasashi kerak.

Jahon tartibotining keng ko‘lamda transformatsiyaga uchrashi, global iqtisodiyotni parchalashga qaratilgan xatarlar, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarning keskinlashib borayotgani sa‘y-harakatlarimizni birlashtirish yo‘lidagi intilishimizni kuchaytirdi.

Bulaming barchasi Markaziy Osiyo davlatlaridan yanada jips va hamjihat bo‘lib harakat qilishni taqozo etadi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda hamkorligimizni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zaruratdir. Markaziy Osiyo barqarorlik va bunyodkorlik hududiga, mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun mustahkam

poydevor bo‘lib xizmat qilayotganining namunasiga aylandi.

Maslahat uchrashuvlari formati yo‘lga qo‘yilgan 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari ko‘p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar. Bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan **yangicha siyosiy tafakkur** ramziga aylandi. Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka o‘tishga erishildi.

Mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri — **chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir**. Yaqin-yaqingacha imkonsiz tuyulgan bu muammoning yechimi bugun real holatga, bir paytlar bizni ajratib turgan chegaralar esa do‘stlik va hamkorlik ko‘prigiga aylandi. 2025-yil mart oyida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida **uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi Shartnoma** va **Xo‘jand deklaratsiyasining** imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisadir. Buni haqli ravishda olamshumul voqea deb atash mumkin.

➡ Davomi 2-betda

INFLYATSIYANI JILOVLASH BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLAYDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga inflyatsiyani jilovlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda 2026-yilga mo‘ljallangan vazifalar to‘g‘risida axborot berildi.

Ichki bozorni to‘yintirish va inflyatsiya omillarini jilovlash bo‘yicha izchil ishlar tufayli barqaror iqtisodiy o‘shish ta‘minlanayotgani, inflyatsiyani pasaytirish va milliy valyutani mustahkamlashda ijobiy natijalarga erishilgani qayd etildi.

2025-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra, yillik inflyatsiya darajasi o‘tgan yilgi 10,2 foizdan 7,8 foizgacha pasaygan. 2026-yilda bu ko‘rsatkichni 7 foizgacha tushirish, 2027-yilda esa 5 foiz doirasida ushlab turish rejalashtirilmoqda.

Shu maqsadda ichki bozorda tovar va xizmatlar taklifini rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Xususan, 2026-yilda banklar agrar tarmoq, oziq-ovqat sanoati va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirishni kengaytiradi.

Yig‘ilishda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini

ta‘minlash uchun barcha zarur choralarini ko‘rish muhimligi ta‘kidlandi.

Yuqori o‘shish sur‘atlari va aholi band-ligini ta‘minlash maqsadida kelgusi yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratiladigan kreditlar hajmi 450 trillion so‘mga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbariga mikro, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha berilgan topshiriqlarning ijrosi haqida axborot berildi. Yil boshidan buyon tadbirkorlik subyektlariga 116 trillion so‘mlik kreditlar ajratildi, bu o‘tgan yilga nisbatan 1,4 barobar ko‘pdir.

Mahallabay ishlab doirasida 89 ming fuqaroning biznes tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanib, ularga 1,1 trillion so‘mlik kreditlar ajratildi. Yil yakuniga qadar mazkur ko‘rsatkich 100 ming nafarga yetkaziladi.

2026-yilda ham kambag‘allikni qisqartirish, aholini tadbirkorlikka faol

jalb etish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish rejalashtirilgan. Mikro, kichik va o‘rta biznesni kreditlash hajmini 140 trillion so‘mga yetkazish, yana 100 ming fuqaroning loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mo‘ljallangan.

Prezidentimiz aholi va biznes uchun barqaror moliyaviy muhit yaratish, bank tizimiga ishonchni mustahkamlash hamda moliya bozorida sog‘lom raqobatni rivoj-lantirish bundan buyon ham bank-moliya siyosatining bosh vazifasi bo‘lishi lozimligini ta‘kidladi.

Mutasaddilarga inflyatsiyani jilovlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlash yuzasidan qo‘shimcha topshiriqlar berildi.

BMTNING NUFUZLI INSTITUTI — UNESCO BILAN HAMKORLIK YANADA RIVOJLANTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-noyabr kuni BMTning Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO) bosh direktori lavozimiga saylangan Holid al-Ananiyni qabul qildi.



Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi yakunlari va BMTning ushbu nufuzli instituti bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Holid al-Ananiyni yuksak lavozimga saylangani bilan tabriklab, kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘z navbatida, yangi saylangan bosh direktor O‘zbekiston Prezidentiga tashkilotning bosh tadbiri qo‘llab-quvvatlangani va yuksak saviyada tashkil etilgani uchun alohida minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasida keng ko‘lamli yo‘nalishlarni qamrab olgan tizimli va sernahsul hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tomonlarning hamkorlikni yanada faollashtirish, jumladan,

tashkilotning mamlakatimizdagi loyihaviy faoliyatini kengaytirish borasidagi intilishi qat‘iy ekani tasdiqlandi.

UNESCO Bosh konferensiyaning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan strategik tashabbuslarni birgalikda amalga oshirishga tayyor ekani ta‘kidlandi.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI MUNOSABATLAR KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev multimodal tashuvlar bo‘yicha xalqaro forumda ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirimni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Kengashning ko‘p tomonlama tashab-buslarni muvofiqlashtirish va ilgari surishdagi o‘rni hamda faol ishtiroki ortib borayotganini hisobga olib, tashkilot doirasidagi

hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Joriy yilda Budapesht va Gabala shaharlarida o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlarida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan strategik takliflarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Prezidentimiz Oqsoqollar kengashining institutsional salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, turkiy xalqlarning milliy an‘analari, ma‘naviy merosi va madaniy birligini saqlashga qaratilgan qo‘shma loyihalarni ilgari surish bo‘yicha “Yo‘l xari-tasi”ni ishlab chiqishni taklif etdi.

YUTA SHTATI DELEGATSIYASI BILAN INVESTITSIYAVIY ALOQALAR ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Yuta shtatining Iso Masih Oxirgi zamon avliyolari cherkovi oqsoqoli Devid Bednar va “Stirling” xalqaro xayriya fondi raisi Mayls Xansendan iborat biznes delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuvda AQSHning O‘zbekistondagi elchisi Jonatan Xenik ham ishtirok etdi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarining sur‘ati ortib borayotgan sharoitda Yuta shtati bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Yuta shtati o‘rtasidagi faol muloqot va almashinuvlar

mamnuniyat bilan qayd etildi. Raqamlashtirish, ta‘lim va ijtimoiy himoya sohalarida qo‘shma loyihalar boshlangan.

Innovatsiyalar, tog‘-kon sanoati, xotin-qizlar tadbirkorligi, inklyuziv ta‘lim, sog‘liqni saqlash, suv ta‘minoti va sanitariya sohalarida loyihalarni amalga

oshirish uchun katta salohiyat borligi ta‘kidlandi.

Yakunda hududlararo aloqalarni rivojlantirish maqsadida Yuta shtati gubernatori boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi.



2025-yil 13-noyabr, 234-son

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA



Boshlanishi 1-betda

Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o‘zaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, o‘nlab yillar davomida keskinlik manbai bo‘lib kelgan masalaga nuqta qo‘yildi.

Shu yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan Farg‘ona tinchlik forumi mamlakatlarimizning Farg‘ona vodiysida tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga bo‘lgan o‘zaro intilishining yaqqol amaliy tasdig‘i, Markaziy Osiyoda kechayotgan bunyodkorlik jarayonlarining ifodasi bo‘ldi.

Ilgari keskin kelishmovchilik va ziddiyatlarga sabab bo‘lib kelgan **suv-energetika sohasida** ham prinsipial ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermog‘da. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida **Qambarota GES-1** loyihasini birgalikda amalga oshirish to‘g‘risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlarcha hamkorlikning yorqin dalilidir.

Toshkent va Bishkek o‘rtasida **Chashma bulog‘idan** birgalikda foydalanish to‘g‘risidagi kelishuv oqilona murosaga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida **Yovon** va **Fondaryo GESlarini** qurish bo‘yicha hamkorlik oldinga siljimoqda, O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston o‘rtasida **Bahri Tojik suv omborini** vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Turkmaniston bilan hukumatlararo bitim doirasida **Amudaryo suv resurslaridan** oqilona foydalanish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilaydi hamda ekologik muammolar xavfini kamaytiradi.

Bularning barchasi ishonch, o‘zaro manfaatdorlik va umumiy resurslarga adolatli yondashuvga asoslangan yangi hamkorlik ruhini shakllantirmoqda. Bunday loyihalar aholining iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash va mintaqaning energetik xavfsizligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Shu bilan birga, chegara tartib-taomillari va gumanitar aloqalar sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermog‘da. 2023-yil sentabr oyidan boshlab O‘zbekiston va Qirg‘iziston fuqarolari **ID-kartalar** asosida chegaradan o‘tayotgani odamlarning erkin harakatlanish huddudini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Qozog‘iston va Tojikiston bilan ham shunday kelishuvlar ishlab chiqilmoqda. Hududlar o‘rtasidagi aloqalar kengaymoqda, chegaraoldi savdo hajmi oshmoqda, gumanitar va madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda.

Hamkorlikni institutsional jihatdan rasmiylashtirish bo‘yicha qadamlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada 2023-yilda Dushanbe shahrida o‘tkazilgan beshinchi Maslahat uchrashuvini qayd etish lozim.

Mazkur uchrashuvda davlat rahbarlarining kelishuvlarini tayyorlash va amalga oshirishning doimiy mexanizmi sifatida **Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashini** ta‘sis etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu mexanizmining ishg‘a fashirilishi Maslahat uchrashuvlari formatiga tizimli tus berish va birgalikda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda izchillikni ta‘minlash imkonini berdi. Shuningdek, **parlamentlararo muloqot** va **Xavfsizlik kengashlari** kotiblari **darajasida muntazam uchrashuvlar** yo‘lga qo‘yilgan.

2022-yilda bo‘lib o‘tgan Cho‘lponota uchrashuvi yakunlari bo‘yicha suveren tenglik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va mintaqa kelajagi uchun birgalikdagi mas‘uliyat tamoyillarini mustahkamlagan **XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadlarida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomanaviy-huquqiy bazani** yanada mustahkamlashga xizmat qildi. 2025-yilda Tojikistonning bu hujjatga qo‘shilgani mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Biz ushbu qarorni olqishlaymiz hamda yaqin istiqbolda Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhini uzil-kesil mustahkamlashga xizmat qiladigan mazkur shartnoma mintaqaning barcha davlatlari tomonidan imzolinishini kutib qolamiz.

2022-yilda davlat rahbarlari tomonidan **Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi** ham tasdiqlandi. Unda mintaqa mamlakatlari xalqaro platformalarda, jumladan, “Markaziy Osiyo plyus” formatlarida o‘zaro muvofiq holda harakat qilishining yo‘nalishlari belgilab olindi.

2024-yilda Ostona sammitida qabul qilingan **“Markaziy Osiyo — 2040” mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi** muhim dasturiy hujjat bo‘ldi. Unda mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash va mamlakatlarimiz taraqqiyotiga qaratilgan hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlari mustahkamlab qo‘yildi.

Shu tariqa ko‘p qirrali o‘zaro hamkorlik arxitekturasini barpo etar ekanmiz, rivojlanish uchun ulkan manbalarni kashf etdik.

Davlatlarning sa‘y-harakatlari bilan mintaqada **yangi iqtisodiy voqelik** shakllanmoqda. So‘nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o‘sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko‘payib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o‘zaro investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi. Birgina mamlakatimizni oladigan bo‘lsak, O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo‘shma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi.

Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi o‘sinhni namoyish etmoqda, bu jahondagi o‘rtacha o‘sinh sur‘atidan ikki karra yuqori. Bunday muvaffaqiyat ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yo‘lga qo‘yish — qo‘shma investitsiya fondlarini (jumladan, O‘zbekiston — Qirg‘iziston, O‘zbekiston — Tojikiston va Qozog‘iston — Qirg‘iziston) tashkil etish, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Mintaqa mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan **2025-2027-yillarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar rejas**i hamkorlikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kichik va o‘rta biznesning o‘sinhiga ko‘maklashadigan chegaraoldi savdo zonlari va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Gumanitar sohada ham keyingi yillarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti va Yoshlar platformasi ta‘sis etildi, 2022-yildan boshlab rektorlar va olimlar forumlari o‘tkazilmoqda, o‘zaro madaniyat yillari, ko‘rgazmalar, konsertlar va sport tadbirlari muntazam o‘tkazilmoqda.



Eng muhimi, qardosh xalqlarimiz bo‘layotgan barcha ijobiy o‘zgarishlarni o‘z kundalik hayotida his etmoqda. Yangi o‘tkazish punktlari ochilgani, aviaqatnovlar, temir yo‘l va avtobuslar yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilgani o‘zaro bordi-keldilarni bir necha bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi. Mintaqa mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi.

Yaqin-yaqingacha orzu bo‘lib tuyulgan erkin harakatlanish, o‘zaro hurmat, yaqinlik va ishonch tuyg‘usi bugun amaldagi haqiqatga aylanmoqda.

Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi **mintaqaviy o‘ziga xosligi** vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni e‘tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, mustarak madaniyatini, taqdirlarimiz o‘zaro bog‘liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo‘shnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati —



barchaning yutug‘i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda.

Mana shunday ishonch, o‘zaro anglashuv va umumiy kelajak ruhi bugungi kunda mintaqaviy jipslashuvni yanada mustahkamlash, ya‘ni barqaror va o‘zaro bog‘liq, farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etish bo‘yicha **Markaziy Osiyo jarayonini** boshlash uchun eng muhim tayanch asosdir.

Ta‘kidlash joizki, Markaziy Osiyoning har bir davlati o‘z sa‘y-harakatlarini iqtisodiyotni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga yo‘naltirish orqali mintaqamiz barqarorligi va farovonligini ta‘minlashga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Qozog‘iston transport yo‘laklarini faol rivojlantirmoqda, chegara punktlarini modernizatsiya qilmoqda, savdo to‘siqlarini bartaraf etmoqda va madaniy-gumanitar almashinuv bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Qirg‘iziston va Tojikiston muzliklarning erishi bilan bog‘liq masalalarda izchil hamkorlik qilmoqda, energetika tizimlarini modernizatsiya qilish va transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Turkmaniston tinchlik va ishonchni mustahkamlash, mintaqaning transport-tranzit salohiyatini oshirish, BMTning Orol havzasi va iqlim texnologiyalari bo‘yicha dasturini qabul qilishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Amaliy harakatlarmiz, kelajak uchun mas‘uliyatimiz, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va o‘zaro manfaat tamoyillariga sodiqligimiz shuni isbotladi: **Yangi Markaziy Osiyo** tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo‘lini tanlamog‘da. Ramziy ma‘noda aytganda, biz devor emas, ko‘prik barpo etmoqdamiz.

Mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning o‘z manfaatlari va taraqqiyot yo‘llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas‘uliyatli ishtirokchisi sifatida qaror topdi.

“Markaziy Osiyo plyus” hamkorlik formatlari **mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei** kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolning e‘tirofi bo‘ldi.

Ilgari tashqi hamkorlar aloqalarni asosan ikki tomonlama asosda qurgan bo‘lsa, bugungi kunda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda.

Bu mintaqaning boshqa hamkorlar bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi: Markaziy Osiyo tashqi hamkorlar bilan xalqaro munosabatlarning yagona subyekti sifatida muloqot qilsa, uning ovozi balandroq va ishonchliroq yangraydi, pozitsiyamiz kuchliroq bo‘ladi, investitsiyalarni jalb etish, boshqa mamlakatlar bilan barcha yo‘nalishlarda hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha vazifalarni yanada samarali hal qila olamiz.

Dunyoga ochiqligimiz, niyatlarimizning shaffofligi va muloqotga moyilligimiz xalqaro

maydonda Markaziy Osiyoni yangicha qabul qilish uchun asos bo‘ldi.

Ayni paytda Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi davlatlari va birlashmalari bilan bog‘laydigan o‘ndan ortiq “Markaziy Osiyo plyus” formatlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Joriy yilning o‘zida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo — Xitoy”, “Markaziy Osiyo — Rossiya” va “Markaziy Osiyo — AQSH” sammitlari bo‘lib o‘tgan mintaqaning global siyosatdagi shiddati va strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.



Yangidan-yangi “Markaziy Osiyo plyus” muloqotlari davlat rahbarlari darajasiga ko‘tarilayotgani ularning amaliy ahamiyati va siyosiy qimmatini ortib borayotganidan dalolat beradi. Bir qator formatlarda esa energetika, transport, “yashil iqtisodiyot” va raqamlashtirish sohalarida aniq loyihalarni ishlab chiqish uchun ishchi guruh va kotibiyatlar tashkil etilmoqda.

Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalarni hal etmasdan turib, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlab bo‘lmaydi. Bu mamlakat umumiy mintaqamizning bir chekkasida emas, balki uning tabiiy bir qismidir. Butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikning mustahkam bo‘lishi ko‘p jihatdan Afg‘onistonning tiklanishi va rivojlanishiga bog‘liq.

Afg‘onistonning jafokash xalqi **chuqur gumanitar inqiroz** sharoitida yashashda davom etmoqda. Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlari Afg‘onistonni mintaqaviy va xalqaro jarayonlarga izchil jalb etish zarurligidan kelib chiqmoqda. Bu esa ushbu mamlakat taraqqiyoti va keng mintaqamizda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘laydigan **Transafg‘on temir yo‘lini** barpo etish muhim ahamiyatga ega. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi savdo, investitsiyalar va transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, afg‘on xalqiga gumanitar va ta‘lim borasida yordam ko‘rsatish, energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash ishlari davom etmoqda.

Afg‘oniston umumiy tinchlik va xavfsizlik, hamkorlik va taraqqiyot makonining bir qismiga aylanishi lozim. Bu mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlariga javob beradi hamda Markaziy

Osiyoning janubiy sarhadlarida barqarorlik belbog‘ini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagiytibo‘tilganidek, bugungi kunda Markaziy Osiyo o‘z jadal taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz ikki tomonlama masalalarni hal etishdan iqlim o‘zgarishi, energetika sohasidagi o‘tish, suv va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kabi asosiy mintaqaviy tahdidlarga birgalikda yechim topish sari bormoqdamiz. Mamlakatlarimiz oldida umumiy mas‘uliyat, o‘zaro ishonch va kelajagimiz haqidagi yakdill tasavvurga asoslangan hamkorlikning yangi uqlari ochilmoqda.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo yaqin o‘n yilliklarda qanday rivojlanadi degan prinsipial savolga birgalikda javob berishimiz zarur.

Markaziy Osiyo aholisi 80 millionlik marradan o‘tib bo‘ldi, BMT prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, bu ko‘rsatkich 100 milliondan oshadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo dunyoning eng yosh mintaqalaridan biri bo‘lib, aholisining o‘rtacha yoshi atigi 29 yoshni tashkil etmoqda.

Oldimizda ushbu demografik resursni taraqqiyot va innovatsiyaning qudratli omiliga aylantirish, yoshlarimizning iste‘dodi va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratish vazifasi turibdi.

Ayni paytda mamlakatlarimizning o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish suverenitet, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik borasidagi mustahkam poydevor asosida amalga oshirilishi lozim degan vazmin yondashuvini qayd etish muhimdir. Hech kim mintaqa mamlakatlariga begona modellarni tiqishtirmasligi yoki milliy tuzilmalardan ustun turadigan tuzilmalarni yaratmasligi lozim.

Markaziy Osiyodagi hamkorlik ixtiyoriy, pragmatik va mamlakatlarimiz xalqlariga foyda keltiradigan real natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lib qolishi kerak.

Hozirgi bosqichda oldimizda o‘ta muhim masalalar turibdi, mintaqamizning barqarorligi va rivojlanish sur‘atlari ularning hal etilishiga bog‘liq.

Birinchidan, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish — mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, ularga barqaror tus va amaliy ma‘no-mazmun bag‘ishlash zarur. Oxir-oqibatda samarali mintaqaviy institutlaris hamkorlikni tizimli rivojlantirish va qabul qilinayotgan qo‘shma qarorlarni sifatli amalga oshirishni ta‘minlab bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, xavfsizlik sohasidagi maqsadimiz — tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy salohiyatni shakllantirishdan iborat. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini davom ettirish lozim. “Xavfsizlikning bo‘linmasligi” prinsipi asos bo‘lib qolishi kerak. Ayni paytda mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi, barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatlar va umuman, mintaqa xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning deg doirasiga qarshi turish bo‘yicha o‘z salohiyatini shakllantirishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan o‘tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o‘zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantirish, transport va iqtisodiy yo‘laklar tarmog‘ini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va raqamli iqtisodiyot sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish zarur.

Hamkorlikning ekologik jihatiga — iqlim o‘zgarishlariga moslashish, transchegaraviy suv resurslari va biologik xilma-xillikni asrash, “yashil” energetika va kam uglerodli texnologiyalarga o‘tish bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlarga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim.

Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasi va atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatning namunasi bo‘lishga qodir va shunday bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, gumanitar hamkorlik ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Inson

kapitalini rivojlantirish, ta‘lim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash markaziy vazifadir. Umumiy axborot makonini yaratish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy sohani, jumladan, turizmni va yoshlarga oid qo‘shma dasturlarni rivojlantirish — bularning barchasi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Umumiy qadriyatlar, madaniy yaqinlik va farovonlikka birgalikda intilishga asoslangan mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatda kelishilgan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim yo‘nalish hisoblanadi.



Geosiyosiy beqarorlik tobora ortib borayotgan va jahon kuch markazlari o‘rtasida raqobat kuchaygan sharoitda mintaqa davlatlarining xalqaro maydondagi pozitsiyalarini muvofiqlashtirish barqarorlik va umumiy manfaatlarni himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan asosiy hamkorlar bilan pragmatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishda o‘z samaradorligini isbotlagan “Markaziy Osiyo plyus” formatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Hozirgi bosqichda “Markaziy Osiyo plyus” formatlari va boshqa xalqaro muloqot maydonlarida mintaqaviy muvofiqlashuvni rivojlantirish, tashqi sheriklar bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha kelishilgan ustuvor yo‘nalishlar va pozitsiyalarni ishlab chiqish strategik vazifaga aylanmoqda. Faqat shu yo‘l bilangina jahonning yetakchi mamlakatlari va birlashmalari bilan hamkorligimizni davlatlarimiz va butun mintaqaning iqtisodiy hamda texnologik taraqqiyotiga, barqarorligiga xizmat qiladigan aniq loyihalar asosida boyitishimiz mumkin.

O‘zbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish taktik tanlov emas, balki Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy mas‘uliyatni anglashdan kelib chiqadigan ongli strategik qarordir.

Ishonchimiz komilki, global noaniqlik davrida yaxshi qo‘shnichilik, hamjihatlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash — Markaziy Osiyoning asosiy resursidir. Mintaqa mamlakatlari yakka holda hal qilishi qiyin bo‘lgan umumiy xavfsizlik muammolari va rivojlanish vazifalari birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Iшонch va sheriklikni mustahkamlash o‘z kelajagini umumiy qadrdon diyorimiz — Markaziy Osiyoning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyoti bilan bog‘lagan millionlab odamlarning manfaatlariga javob beradi.

Bugun biz kuchli, barqaror va farovon mintaqa — Yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratmoqdamiz. Mintaqamizda kechayotgan jarayonlar — bu ongli va ortga qaytmas tanlov. Ushbu yo‘l bizdan nafaqat birgalikdagi sa‘y-harakatlarni, balki umumiy kelajagimiz uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiziga olishga tayyor bo‘lishimizni ham talab qiladi.

Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etmoqdamiz, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning **vagt va hayot sinovidan o‘tgan — ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan o‘z modelimizni** taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur‘atni saqlab qolishimiz har qachongidan ham muhimdir.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Davlatimiz rahbarining tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan uchrashuvi O‘zbekiston tibbiyotida katta voqea bo‘ldi. Uchrashuv avvalida Prezidentimiz yig‘ilganlarni Tibbiyot xodimlari kuni bilan samimiy tabriklab, barcha shifokor va hamshiralar, soha mutaxassislarga o‘zining chuqur hurmati va ezuq tilaklarini bildirdi. So‘ng yechimini kutayotgan masalalar tahlil qilinib, yangi vazifa va imkoniyatlar belgilab berildi.

Uchrashuv shukhi va mazmuni soha vakili sifatida meni ham ortga bir qur nazar tashlav va islohotlar samarasi haqida mulohaza yuritishga undadi. Bu samara, eng avvalo, aholining tibbiy xizmatdan rozilik darajasida sezilayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Mutasaddilardan biri sifatida buni taqqoslash imkoniyatiga egaman. Besh-olti yil oldin hududlarda sayyor qabul o‘tkazilganida tibbiyot sohasida yuqori texnologik amaliyotlar, ixtisoslashgan xizmatlar yetarli emasligi haqida ko‘p e‘tiroz bo‘lardi. Misol uchun, endoprotez amaliyotini bajarish imkoniyatiga ega emas edik. Yurak-qon tomir kasalliklari yo‘nalishida bepul bajariladigan yuqori texnologik operatsiyalar barmoq bilan sanarli edi. Murakkab amaliyotlar xorij klinikalarida o‘tkazilar, bemorlarning mablag‘ sarflab boshqa davlatlarga borishi ko‘p kuzatildi. Bugun mamlakatimizda ham eng noyob operatsiyalar o‘tkazilayotgani, tibbiy xizmat sifati va ko‘lami eng chekka hududlarni ham qamrab olayotgani — katta yutuq‘imiz.

Barcha soha kabi tibbiyot rivojida ham xalqaro aloqalar muhim o‘rin tutadi. Chunki eng yaxshi laboratoriya, tadqiqot institutlari dunyoning nufuzli tibbiyot markazlarida joylashgan. Bugun O‘zbekiston jahonga ochiq mamlakat sifatida o‘z o‘miga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizga bildirilayotgan ishonch va qiziqish sog‘liqni saqlash tizimida ham xalqaro aloqalarning kengayishiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotir. Dunyoning biz bilan hamkorlik qilayotgan yetakchi klinikalari soni tobora ortib borayotgani fikrimiz tasdiq‘idir. Ularning klinik protokollari davolash jarayonini zamonaviy, eng ilg‘or usullar asosida o‘tkazish imkonini beradi.

O‘zbekistonda shifokorning siymosi o‘zgardi. Xorijiy davlatlarda ta‘lim olib, malaka oshirib kelayotgan yosh mutaxassislari safi kengaymoqda. Bugun mamlakatimizda ko‘p yillik tajriba va malakaga ega shifokorlarning katta maktabi shakllangan. Ularning hech bir tashabbusi, taklifi va mulohazasi e‘tibordan chetda emas. Misol uchun, uchrashuvda Yaponiyada ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh shifokorning tez tibbiy yordam xizmatida paramediklarning faoliyatini kuchaytirish borasidagi o‘rinli taklifi ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi. Bu boradagi dunyo tajribasi O‘zbekistonda ham qo‘llansa, tez tibbiy yordam xizmatida yangi tizimlarni ishga tushirish imkonini vujudga keladi.

Yurtimizda oxirgi to‘rt yilda siam egizaklarni ajratish bo‘yicha ikki marta jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi. Bu — juda noyob



Inson qadri uchun

XALQNING BAHOSINI ESHITADIGAN TIZIM

YOXUD SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI YANGILANISHLAR NAFASI



Elmira BOSITXONOVA, sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari

operatsiya. Shunday amaliyotni muvaffaqiyatli bajargan hamkasbimiz, Respublika perinatal markazining chaqaloqlar neonatal xirurgiyasi bo‘limi mudiri Baxtiyor Ergashevning “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangani bizga g‘urur bag‘ishlaydi. Zero, uning mahorati va bilimi xalqaro miqyosda katta e‘tiroflarga sabab bo‘ldi. Siam egizaklarni ajratish oddiy appenditsit (ko‘richak) amaliyoti emas. Buning uchun, albatta, ham onaga, ham egizaklarga qaraydigan uchta mustaqil brigada bo‘lishi kerak. Amaliyot uchun zarur barcha uskuna mujassam bo‘lishi shart.

Sana munosabati bilan bir guruh soha vakillari davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular orasida dunyoning nufuzli oliygohlarida ta‘lim va tajriba olib, yurtimizga qaytib kelib ishlayotgan, yuqori texnologik muolajalarni amalga oshirayotgan yosh shifokorlar, aholi salomatligini saqlashda yaqindan ko‘mak berayotgan xorijiy hamkorlar ham bor. UNFPA tashkilotining O‘zbekistondagi doimiy vakili Nigina Abboszoda, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatining yurtimizdagi vakolatxonasi sog‘liqni saqlash dasturi direktori Korneliya Beker, UNICEFning mamlakatimizdagi vakolatxonasi rahbari Rexina Mariya Castillo Rodrigues, Belarus Respublikasi “Ona va bola” ilmiy-amaliy Markazining bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limi anesteziolog-reanimatologi Sankaves Dmitriyning davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangani ishimizga berilgan baho hamda do‘stlik rishtalarining mustahkamligidan dalolat.

Bugun har bir jamoa protokol va standartlar asosida faoliyat yuritadi. Bu protokol va standartlar samarasi yuqori bo‘lishi uchun, albatta, xalqaro miqyosda tan olingan bo‘lishi kerak. Yig‘ilishda raqamlashtirish, xorijdan hamkor topish, klinik protokollarni yangilash, ilg‘or diagnostika, profilaktika va davolashni uddalaydigan zamonaviy jamoani shakllantirish

barcha tibbiyot markazlari, viloyat, tuman sog‘liqni saqlash boshqarma va bo‘limlarining birinchi navbatdagi vazifasi bo‘lishi zarurligi qayd etildi.

Ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari oldiga boshqaruvda sug‘urta mexanizmlarini ishlab chiqish, eng zamonaviy amaliyotni aholiga yaqinlashtirish kabi yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Har bir markaz 2026-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqmoqda. Qaysi mahalla va tumanda qanday kasallik ko‘paygani yoki kamayganini tahlil qilib, ularning oldini olish va samarali davolash bo‘yicha aniq reja asosida ishlash, bunday tahlil va yondashuv bilan ishni quyidan boshlab tashkil qilish ko‘zda tutilayapti. Katta mablag‘ evaziga olib kelingan eng zamonaviy uskunalaridan samarali foydalanish talab etilyapti.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari “Bugun odamlarning hayotga munosabati ham, talab va ehtiyojlari, dunyoqarashi ham tubdan o‘zgardi. Bu boshqa sohalar qatori tibbiyotda ham sifatini oshirish, zamonaviy yondashuvlar olib kirish bo‘yicha oldimizga yangi vazifalarni qo‘ymqda. Shu bois, tibbiyotda xalqning bahosini eshitadigan tizimni joriy qilamiz”, dedi. Bu ham aholi salomatligiga yuksak e‘tiborning yana bir namunasi. Shu ma’noda, endi 26 ta markaz direktori, viloyat va tumanlardagi sog‘liqni saqlash sohasiga mas‘ullar, oilaviy



poliklinika mudirlari bir oylik aniq reja asosida ishlashga o‘tishi ko‘zda tutilmoqda.

Markaz rahbarlari o‘z yo‘nalishi bo‘yicha holat eng og‘ir tuman va mahallaga boradi. Bir oy hudduda yurib, kasalliklarning sabablarini o‘rganadi va ularga yechim beradi. Oilaviy poliklinika va tuman shifoxonalarining vrachlarini kasallikni davolashga o‘rgatadi.

Bundan buyon viloyat va tuman sog‘liqni saqlash rahbarlarining kunlik qabuli mahallada bo‘ladi. Har bir viloyat, tuman tibbiyot rahbari, bosh shifokor va poliklinika mudiri bemorga

e‘tiborli bo‘lib, shifo topishi uchun barcha imkoniyatni ishga soladi.

Shunga mos ravishda rag‘batlantirish tizimi ham yo‘lga qo‘yiladi. Eng namunalari viloyat, tuman sog‘liqni saqlash bo‘limlari rahbarlari va oilaviy poliklinika mudirlariga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan tibbiyot xodimi” unvoni, orden va medallar, 30 million so‘mdan pul mukofoti berilishi, ular rahbarlik qilayotgan shifoxona va poliklinika infratuzilmasini yaxshilashga 500 million so‘mdan mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilmoqda.

Har bir viloyatda eng yaxshi 2 ta tumanning sog‘liqni saqlash bo‘limi rahbari va oilaviy poliklinika mudiri menejerlikka o‘qish uchun AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi tibbiyoti rivojlangan mamlakatlarga yuboriladi.

Prezidentimiz hozir tibbiy xizmatlarning 30 foizi xususiy sektor tomonidan ko‘rsatilayotgani, ilg‘or tashabbuslar, asosan, ulardan chiqayotgani quvonarli hol ekanini ta’kidlab, xususiy sheriklikni kengaytirish bo‘yicha barcha takliflarni ko‘rib chiqishga tayyorligini bildirdi. Kelgusida ham tibbiyotda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va ularga qo‘shimcha sharoitlarni yaratish davom etirilishi ta’kidlandi. Xususan, kelgusi yildan tibbiy uskuna, jihoz va tez yordam mashinalarini olib kirish bo‘yicha imtiyoz 3 yilga uzaytiriladi.

o‘z ustida doimiy ishlashi shart. Shu bois, tibbiyot xodimlarining malakasini uzluksiz oshirib boradigan yangi tizim yaratish nazarda tutilmoqda. Kelgusi yildan malaka oshirishning masofaviy, robot-simulyator, amaliy, ish joyida mustaqil tayyorgarlik kabi turlari yo‘lga qo‘yiladi. Tibbiyot tizimini raqamlashtirish — soha oldida turgan eng muhim vazifa. Bu tizimda uchrayotgan ayrim korruptsiyaviy holatlarga barham berish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish orqali aholining tibbiyotdan roziligi ta‘minlanadi. Tibbiyot muassasalari va dorixonalarda “Elektron retsept” moduli ishga tushirilgani zamirida ham shu maqsad mujassam.

Barcha tarafdagi birlamchi tibbiyot muassasalarida Yagona elektron axborot tizimi — DMED dasturi yo‘lga qo‘yilib, mazkur yo‘nalishda ijobiy natijalarga erishilyapti. Jumladan, tibbiyot tizimining raqamlashtirilishi bemorlar uchun qulaylik, shifokorlar uchun samaradorlik, davlat uchun esa shaffoflik va tejamlorlikni ta‘minlaydi.

Ilgari tibbiyot sohasida o‘zgarish bo‘lishi uchun yillar kerak edi. Bugun yangilanishlar kun sayin amalga oshmoqda. Chunki ilm-fan taraqqiy etyapti. Jahon tibbiyoti, texnologiyalardan xabari bo‘lmasa, shifokor o‘z vazifasini to‘laonli bajara olmaydi. Shu bois, tibbiyot muassasalari eng zamonaviy uskunalar bilan ta‘minlanmoqda, soha xodimlari xorijda malaka oshirib qaytyapti. Samara ham shunga yarasha bo‘lishi kerak. Barcha sa’y-harakatlarimizni yana bir karra tahlil qilish va yangi mamlalarni belgilab olish — oldimizda turgan muhim vazifa.

Sog‘liqni saqlash muassasalarini malakali kadrlar bilan ta‘minlash tibbiy ta‘lim bilan bevosita bog‘liq. Prezidentimiz shu haqda so‘z yuritir ekan, “Tibbiy ta‘limdagi islohotlarimizni davom ettirib, oilaning barcha yoshlarida a’zolariga malakali tibbiy xizmat ko‘rsata oladigan oilaviy shifokorlik institutini rivojlantirishimiz zarur”, dedi.

Kelgusi o‘quv yilidan tibbiyot oliygohlarining bakalavriat bosqichida pediatriya va davolash yo‘nalishlarini qamrab olgan umumiy tibbiyot fakulteti ochiladi. Ularda oilaviy shifokorlik mutaxassisligi bo‘yicha rezidentura va magistratura yo‘lga qo‘yiladi.

Hamshira deganda ko‘pchilimiz qon bosimini o‘lchash yoki ukol qilishni biladigan tibbiyot xodimini tushunamiz. Aslida, sog‘liqni saqlash tizimi rivojlangan mamlakatlarda hamshiraning bilimi va malakasi shifokorlikdan kam bo‘lmaydi. Shu bois, oddiy mulajaja bilan cheklanib qolmaydigan, tashxis, davolash va profilaktikada shifokorga ko‘makchi bo‘ladigan hamshiralarni tayyorlash masalasiga ham e‘tibor qaratildi. Yangilanishlarning mantiqiy davomi sifatida Hamshiralari akademiyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti tasarrufiga o‘tkazilib, uning negizida Oliy kasbiy tibbiyot akademiyasi tashkil qilinadigan bo‘ladi.

Tibbiyotda “antibiotiklar rezistentligi” degan tushuncha bor. Ya’ni mikroblar berilgan har bir antibiotikka tez moslashadi. Antibiotiklar o‘tgan asrning 60-yillarida kashf etilgan. Keyinchalik ularning soni, darajasi, ta’sir quvvati o‘zgarib bordi. Antibiotikni ko‘p va palapartish qo‘llash orqali organizmning mikroblarga chidamligi pasayib bordi. Bu dunyo tibbiyotining xatosi edi. Bundan buyog‘iga ham shunday davom etilsa, birorta antibiotik mikrobgga ta’sir qila olmaydigan davrga borib qolishimiz mumkin. Shuning uchun aholining antibiotiklarga itilishiga chek qo‘yishimiz kerak. O‘tkir respirator virusli infeksiyalr (O‘RVI) kasalliklari ko‘paygan ayni mavsumda antibiotiklarning qo‘llanishi ko‘p kuzatilyapti. Tana harorati 38,5 darajaga chiqqunga qadar uy sharoitida antibiotik qabul qilish tavsiya etilmaydi. Zero, tana harorati 38 gradusdan yuqori bo‘lgandagina bolada immunitet shakllanadi.

Insonning salomatligi unda nafaqat kasallik yoki jismoniy nuqsanlar yo‘qligi, balki jismoniy va ruhiy xotirjamligi, salomatligini yaxshilash va muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ham belgilanadi. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qurib topirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bugun kasallanish darajasi kam bo‘lgan mamlakatlardagi sog‘liqni saqlash tizimini tahlil qilsak, uning zamirida aholining sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi mujassamligini ko‘ramiz.

Yevropa davlatlari aholining umr davomiyligini oshirishga tibbiy madaniyat yuqoriligi tufayli erishgan. Sharq mamlakatlari aholisining uzoq umr ko‘rsatishida esa milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, yapon xalqining ovqatlanish madaniyati, jismoniy faolligi, ko‘rsatgan salomatligini milliy qadriyatlariga singdirgan sog‘lom turmush tarzi naqadar muhim ekanini ko‘rsatdi. Yaponiyada o‘rtacha hayot davomiyligi 90 yoshga yaqinlashgan. Bu juda katta voqea bo‘lishi bilan barcha sog‘lom turmush tarziga rioya qilish umr davomiyligini ta‘minlashdagi eng ustuvor jihat ekanini tasdiqlaydi. Ko‘pchilik salomatligini tibbiy omil bilan bog‘laydi. Shu sababli tibbiyot asosan kasalliklarni davolashga ixtisoslashib, salomatlikning boshqa omillari, xususan, sog‘lom turmush tarziga kam e‘tibor qaratga boshladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, salomatlikning atigi 10-12 foizi tibbiyot tizimi darajasi, qolgan 55-60 foizi esa turmush tarziga bog‘liq.

Demak, sog‘lom turmush tarziga qanchalik rioya qilsak, to‘g‘ri ovqatlansak, jismoniy faol bo‘lsak, kun tartibimizni zararli odatlarisiz, to‘g‘ri tashkil qila olsak, salomatligimizni asragan bo‘lamiz. Jismoniy tarbiya oilaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Har birimizning o‘z salomatligimizga mas’ulligimiz birinchi darajali omil ekanini unutmaylik.

Davlat, jamiyat va xususiy sektor ishtiroki, qolaversa, fuqaroning o‘z salomatligiga mas’uliyati, sog‘lom bo‘lishga intilishi kabi xususiyatlar barchaga birdek tegishli. Yuqori malaka, bilim va ko‘nikmaga ega shifokorlar, hokimliklar, mahalla fuqarolar yig‘inidagi mas’ullar bu ishda kamarbastasi bo‘lishi shart. Har bir fuqaro “Mening sog‘lig‘im birinchi navbatda o‘zingma kerak”, degan tushuncha bilan salomatligiga mas’uliyatli bo‘lsa, sa’y-harakatlar natija beradi.

Munosabat

Juda baxtli insonman deb bemalol ayta olaman. Hayotim davomida ko‘plab insonlarning dardiga darmon bo‘lib, shifo topishiga ko‘mak berdim. Hatto ularning ba’zilari bilan qarindosh bo‘lib ketdim.



Mels KABULOV, Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti professori, I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi

Davlatimiz rahbarining tibbiyot xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risidagi farmoniga ko‘ra, I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandim. Bundan qanchalik quvongan bo‘lsam, shunchalik katta mas’uliyatni his etdim. Chunki sohaning tubdan isloh qilinayotgani, tizim xodimlariga bunday ishonch bildirilishida ham o‘ziga xos ma’no bor.

Darhaqiqat, bugun yurtimizda tibbiyot sohasi nafaqat texnologik jihatdan, balki inson salomatligiga munosabat nuqtayi nazaridan ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Shifokorlar mehnati va fidoyiligi — davlatimizning doimiy e‘tiborida. Asosiysi, inson qadriini ulug‘lash, uning hayoti va salomatligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Samarqand davlat tibbiyot institutini tamomlagach, mehnat faoliyatimni Qoraqalpog‘iston Respublikasi silga qarshi

kurashish dispanseri shifokorligidan boshlaganman. Hozir Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti xirurgiya kafedrasini mudiri va professori vazifasida ishlayapman. Yarim asrdan ziyod hayotimni tibbiyot sohasiga bag‘ishladim. Uzoq yillik nazariy, immunogenetik va klinik ishlarim yaxshi natija berdi. Qoraqalpog‘iston populyatsiyasida qizilo‘ngach saratoni kasalligining juda yuqori darajada paydo bo‘lishiga imkon yaratadigan asosiy omillarni

aniqladim. Shu asosda qizilo‘ngach saratoniga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Janubiy Orolbo‘yi aholisi orasida qizilo‘ngach saratonining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi konsepsiyasini ishlab chiqdik.

Shuningdek, ezofagitlarning klinik-endoskopik klassifikatsiyasini amaliyotga joriy qildik. Qoraqalpog‘iston populyatsiyasi orasida ilk marotaba immunogenetik tadqiqotlarni amalga oshirdik. Bu qizilo‘ngach kasalliklarining etiopatogenetik mexanizmlarini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Ommaviy vitamin bilan ta‘minlash tarzidagi birlamchi hamda qizilo‘ngach o’smaoldi kasalliklarini davolash sifatidagi ikkilamchi profilaktikani amaliyotga tatbiq etdik. Natijada Qoraqalpog‘istonda qizilo‘ngach saratoniga chalinish ko‘lamini olti barobar kamaytirishga erishildi.

Qirg‘ yildan ortiq muddat Respublika onkologiya va radiologiya markazi hamda Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qoraqalpog‘iston filiallari direktori vazifasida ishlagan paytimda 150 dan ortiq onkolog, xirurg va endoskopistlarni tayyorladik. Yangi operatsiya turi — qizilo‘ngachning ko‘krak qismi bilan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

oshqozonni ulash uslubini ishlab chiqdik. Shuningdek, skalpeling yangi turini yaratib, uning uchun patent oldik.

Yillar davomidagi mehnatimiz samarasi o‘larog‘, Qoraqalpog‘istonda onkolog va xirurglar maktabi yaratildi. Qorin (oshqozon, ichak, jigar) va ko‘krak (o‘pka, qizilo‘ngach) bo‘shlig‘i

organlarida 20 mingdan ziyod juda murakkab, yuqori texnologiyali operatsiyalarni bajardik. Diagnostik va davolash endoskopik usulblar asosida o‘pka, qizilo‘ngach, jigar, oshqozonning kardial qismi saratoniga chalingan bemorlarni operatsiya qilish amaliyotini ilk marotaba Qoraqalpog‘istonda joriy etdik.

Qoraqalpog‘iston populyatsiyasida o’sma kasalliklarini kompleks profilaktika qilish, birlamchi tibbiyot tizimida skrining yurgizish hisobidan onkologik kasallarni etra bosqichda aniqlash va zamonaviy texnologiyadan foydalanib, bemorlarni davolash bo‘yicha Prezidentimizning tegishli qarori chiqdi. Unga muvofiq, Nukus shahrida yangi Onkologiya va radiologiya markazi qurilishi boshlandi. Kelgusi yilda 175 o‘rinli klinika ishga tushiriladi.

Bu markaz zamonaviy tibbiy diagnostik, radiologik, jarrohlik, endoskopik uskunalar va laboratoriya jihozlari bilan ta‘minlanadi. Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Sankt-Peterburgdagi nufuzli onkologiya markazi bilan 3 yilga mo‘ljallangan memorandum tuzildi. Unda mutaxassislarning o‘qitish, yangi operatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, immunoterapiya va vaksinoterapiya kabi onkologiyadagi eng ilg‘or davolash usulblaridan foydalanish bo‘yicha tajriba almashish ko‘zda tutilgan.

So‘nggi yillarda yurtimizda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiyot muassasalarini zamonaviy talablar asosida yangilash hamda shifokorlar uchun qulay mehnat sharoitini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining sohaga juda katta e‘tibori tufayli tibbiyot kun sayin ilg‘orlab bormoqda. Bizga berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar, asosiysi, Prezidentimiz e‘tiborida katta kuch oldik. Endi bilim va tajribamizdan yanada samarali foydalanib, aholi salomatligi yo‘lida xizmat qilamiz.



JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIK MARRAGA BIR QADAM QOLDI!

O'zbekiston 2026-yilda Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish va uning teng huquqli a'zosi bo'lishni maqsad qilgani haqida ko'pchilik yaxshi biladi. Bir necha yil oldin davlatimiz rahbari boshchiligidagi ayni shu maqsad yo'lida dadil qadamlar tashlangan edi. Yaqin vaqtgacha bu ba'zilar uchun yetib bo'lmay orzu, xomxayoldek tuyulgan bo'lsa, boshqalar jahon savdosining qariyb 99 foizini tashkil etayotgan yirik xalqaro tuzilmaga qo'shilish oson emasligi, O'zbekiston buning uchun turli sohalarida katta islohotlarni amalga oshirishi zarurligini ta'kidladi. Qizig'i, bunday fikr bildiruvchilar orasida iqtisodchilar, tadbirkorlar, umuman, mazkur muhitdagi odamlar ko'pchilik edi.

Dastlabki yillarda JSTga a'zo bo'lish sari sa'y-harakatlar bir oz sekin kechgani, vaqt o'tishiga qaramay, katta siljish kuzatilmagani ayrim fikrlarda jon bordek tasavvur ham uyg'otdi. Ammo jarayon biz o'ylagandan ko'ra puxta ketayotgani keyingi yillarda yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Natijada oddiy yurtidoshlarimizdan tortib, iqtisodchi va tahlilchilargacha xalqaro tashkilotga a'zo bo'lishga qaratilgan ishlarni katta qiziqish bilan kuzata boshladi.

Mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish talablarini bajarishda sobit qolmoqda. Sa'y-harakatlar birin-ketin, izchil amalga oshirilyapti. Oxirgi bir necha yilda bu jarayon yanada jadallashdi. Yirik iqtisodiy tuzilma talablariga javob beradigan milliy qonunchilik bazasini yangilash, xalqaro savdo qoidalariga muvofiqlashtirish, bojxona va savdo tartibotlarini jahon standartlariga moslashtirish ishlari yuqori sur'atda davom ettirilyapti. Jarayonda o'nlab yangi normativ-huquqiy hujjat qaratilgan, mavjudlari qayta ko'rib chiqildi. JSTning "milliy rejim" tamoyiliga muvofiq, mahalliy va xorijiy tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni esa JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi qadamlarning eng salmoqlisi bo'ldi. Mazkur hujjat xalqimiz va iste'molchilar uchun juda ko'p afzalliklarni nazarda tutadi.

Nufuzli tashkilotga a'zo davlatlar bilan muzokaralar olib borib, kelishuvga erishish JSTga qo'shilish talablari orasida muhimlaridandir. Ya'ni boshqa a'zo davlatlar ham o'z talabini qo'yar ekan, mamlakatimiz bunga qanchalik javob berishini amalda isbotlashi lozim. O'zbekiston 30 dan ortiq a'zo davlat bilan ikki tomonlama muzokaralar olib bordi. Bugungacha ulardan aksariyati bilan kelishuvlarni muvaffaqiyatli yakunladi. Tashkilotning eng yirik a'zolari — AQSH va Xitoy bilan o'tgan yil kuz oylarida samarali kelishuvga erishilgan.

Joriy yil oktyabrda esa mamlakatimiz JSTga qo'shilish yo'lida eng ulkan va tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Aniqlig'i, 24-oktabr kuni O'zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarni rasman yakunlagani e'lon qilindi. Prezidentimizning JST bo'yicha maxsus vakili Azizbek O'runov mazkur muhim voqea mamlakatimizning Yevropa Ittifoqidagi a'zo davlatlar bilan bozorga kirish shartlari bo'yicha, jumladan, eksport va import bojxona imtiyozlari hamda xizmatlar sohasidagi kelishuvlarni qamrab olgan muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlanganini anglatishini ta'kidladi. Shuningdek, "Ikki yildan ortiq faol muzokaralar, tahlillar va hamkorlikdagi ish jarayoni mamlakatimiz uchun katta natija berdi. Bu jarayon sadoqat, qat'iyat va hamjihatlik bilan amalga oshirilib, o'zaro manfaatli kelishuvga erishish imkonini taqdim etdi. Yevropa Ittifoqi O'zbekiston bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlagan 31-davlat bo'ldi. Endi rasman ma'lum: O'zbekiston JSTning 31 a'zosi bilan muzokaralarni yakunladi. Faqat 3 davlat bilan muzokaralar qoldi", deb yozadi u.

Uzoq kutilgan bu voqea davlatimiz rahbarining joriy yil 23-24-oktabr kunlari Belgiyaga rasmiy tashrifi doirasida bo'lgani ahamiyatlidir. Mazkur tashrif davomida Yevropaning ramziy poytaxti bo'lgan Bryussel



shahrida O'zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida Kengaytirilgan sherklik va hamkorlik to'g'risidagi kelishuv ham imzolandi. Bu qadam ko'hna qit'a va mamlakatimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlab, turli sohalaridagi manfaatli hamkorlikka keng yo'l ochadi.

Qolgan uchta davlat bilan muzokaralar ham uzoq kutirmadi. Shu yil 6-noyabr kuni mamlakatimiz JSTga a'zo bo'lish bo'yicha Kanada va Panama bilan ham ikki tomonlama muzokaralarni yakunlagani e'lon qilindi. Azizbek O'runov ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida navbatdagi xushxabarni ma'lum qilgan ekan, kelishuv bo'yicha tegishli protokollar imzolanganini qayd etdi.

Yangi O'zbekiston ochiq iqtisodiyot sari

Jahon savdo tashkiloti — juda katta bozor, 166 davlat bilan o'zaro savdo aloqalari, xususi sektor uchun haqiqiy raqobat maydoni. Tashkilotga a'zolik har qanday davlat iqtisodiyotida o'sishni ta'minlaydi. Bu borada yetarlicha tahlillar, hisob-kitoblar qilingan.

Tashkilot qanday tuzilma ekan, uning dunyo iqtisodiy maydonidagi ahamiyati va O'zbekistonning bugungacha unga qo'shilish yo'lidagi sa'y-harakatlari haqida muntazam yoritib kelyapmiz. Mutaxassislar, iqtisodiy tahlilchilar, hatto tadbirkorlar bu boradagi fikrlari bilan qator chiqishlar qilmoqda.

Eksptlar, iqtisodchilar, umuman, soha vakillarining shukuhli jarayonga munosabati, mamlakatimiz tuzilmaga qo'shilgandan keyin ro'y beradigan o'zgarishlar to'g'risidagi mulohazalari bilan qiziqdik.

Nodir JUMAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor:



— Bugun milliy iqtisodiyotlarning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili xalqaro iqtisodiy munosabatlarga faol qo'shilishdir. Shu ma'noda, Jahon savdo tashkilotiga a'zolik nafaqat tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi, balki milliy taraqqiyot strategiyasining muhim ustuni sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston uchun bu jarayon shunchaki xalqaro institutga qo'shilish emas, balki ochiq, samarali va huquqiy jihatdan kafolatlangan iqtisodiy tizim sari strategik burilish nuqtasidir. Bu orqali davlatimiz xalqaro savdo qoidalariga mos milliy tizim yaratish, eksportni diversifikatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va ishlab chiqarish tarmoqlarini raqobatbardosh qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz 1994-yilda JST bilan hamkorlik o'tatgan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu jarayon yangi bosqichga ko'tarildi.

Prezidentimiz rahbarligidagi islohotlar jarayonida tashqi iqtisodiy siyosatda "ochiq eshiklar" siyosati ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, u amaliy natijalar bilan tasdiqlanmoqda. So'nggi yillarda mamlakat tashqi savdo siyosatida tub burilish yuz bergani buning aniq isboti. 2017-yilda valyutani erkin konvertatsiya qilish to'g'risidagi qaror imzolangan, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberalashtirish, soliq tizimini soddalashtirish, litsenziya va ruxsatnomalarni qisqartirish bo'yicha ko'rilgan choralar — bularning barchasi JST talablariga yaqinlashtirishga qaratilgan islohotlardir.

Mazkur nufuzli tuzilmaga qo'shilish jarayonini ko'pgina ekspertlar mamlakat iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashning yangi modeli sifatida baholamoqda. Bu jarayonda milliy manfaatni himoya qilish, ichki bozorni bosqichma-bosqich ochish va xalqaro raqobatga mutanosib moslashish muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda bu jarayon mamlakatimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ochiq iqtisodiyot konsepsiyasining amaliy ifodasidir. Strategiyada iqtisodiy diversifikatsiya, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. JSTga a'zolik shu maqsadlarga erishish uchun institutsional asos yaratadi. Masalan, milliy ishlab chiqaruvchilar uchun xalqaro sertifikatlash tizimlariga kirish, xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, tashqi bozorda "Made in Uzbekistan" brendini mustahkamlash va eksport geografiasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ko'plab davlatlar tajribasi JST a'zoliq dastlab ichki bozorda raqobatni kuchaytirib, uzoq muddatda iqtisodiyotda sifati o'sishga yoki berishini ko'rsatadi. Masalan, Gruziya va Vietnamlar misolida ko'rilganidek, a'zolikdan keyingi besh yilda eksport hajmi ikki baravar oshgan, ishlab chiqarish tarmoqlarida modernizatsiya jarayoni tezlashgan. Bunday tahlillar O'zbekiston misolida ham qilingan, albatta. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining baholashlariga ko'ra, O'zbekiston JSTga qo'shilgandan so'ng tashqi savdo aylanmasi 15-20, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya oqimi esa 25-30 foiz oshishi mumkin. Eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi ko'payishi, ishlab chiqarishda raqobat muhiti shakllanishi va mahsulotlar sifati oshishi kutilmoqda. Buning asosiy sababi a'zolik orqali mahalliy mahsulotlar uchun yangi bozorlar ochilishi va xorijlik investorlar uchun huquqiy kafolatlar mustahkamlanishidir. Bularning barchasi bevosita milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Jarayon faqat tashqi bozorlarga chiqish yo'lini kengaytirish bilan cheklanib qolmaydi, balki ichki iqtisodiy munosabatlarning tubdan yangilanishi, milliy biznes muhitini xalqaro mezonlarga moslashtirish va raqobat muhitini sog'lomlashtirishni talab qiladi. Mahsulotlar va xizmatlar eksportidagi byurokratik to'siqlarni qisqartirib, tovarlar sifati, brend rivojlanishi va qiymat zanjiridagi ishtirokni kuchaytiradi. Gap shundaki, JST a'zoliq har bir davlatdan xalqaro qoidalariga mos majburiyatlarini bajarishni talab qiladi. Ammo muhim jihat shundaki, ushbu majburiyatlar milliy manfaatlariga zid bo'lmasligi shart. O'zbekiston bu borada muvozanatli yo'lni tanlamoganda: bir tomondan, xalqaro savdo me'yorlarini joriy etmoqda, ikkinchi tomondan esa ichki bozorni himoya

qilish, strategik tarmoqlarni saqlab qolish, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish siyosatiga sodiq qolmoqda.

Qisqasi, JSTga a'zo bo'lish yangi bosqich, yangi imkoniyatlar va yangi mas'uliyat demakdir. Bu jarayon milliy iqtisodiyotni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish sifati oshirish va eksportni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Eng muhimi, bu xalq farovonligi, tadbirkorlik faoliyati va innovatsion iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi.



Biz ana shu katta o'zgarishlar tomon asosiy qadamni tashlab, nufuzli Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ostonasida turibmiz. Ushbu tarixiy voqea amalga oshgandan keyingi asosiy vazifamiz esa oldimizdagi barcha imkoniyatdan to'liq foydalanish, milliy manfaatlarini himoya qilgan holda global iqtisodiy tizimda munosib o'rinni egallash bo'ladi.

Sherzod QURBONOV,
iqtisodiy tahlilchi:



— O'zbekiston dunyoga keng ochildi. Bu oddiy siyosiy yoki iqtisodiy jarayon emas, balki xalqimiz asrlar davomida intilqil bilan kutgan yirik g'oyalarni qayta o'ylash va ularni amalda qayta yaratish imkonini beradi va investorlar uchun kafolatli huquqiy muhit shakllantiradi. Jarayonda transchezaraviy logistikani rivojlantirish, "yagona bojxona hududi" doirasida erkin tovar harakatini ta'minlash va "Made in Uzbekistan" brendini jahon bozorida tanitish kabi yo'nalishlar muhim o'rinda ega.

Keyingi yillarda O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va jahon iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashuvi yo'lida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda aniq raqamlarga e'tibor qaratsak. 2021-yilda mamlakatimiz Yevropa Ittifoqining GSP+ imtiyozli savdo tizimiga kiritildi. Bu yurtimizda ishlab chiqarilgan 6000 dan ortiq turdagi mahsulotga Yevropa bozoriga bojsiz yoki yengillashtirilgan shartlarda kirish imkonini

kelishuvlarni katta hayajon bilan kuzatdik. Ayniqsa, Bryussel muzokaralari natijasida Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini to'liq qo'llab-quvvatlashini ma'lum qilgani ko'pchilik uchun kutilmagan xabar bo'ldi. Boisi, mamlakatimiz 2026-yilda JSTga qo'shilishni qat'iy maqsad qilib, bu yo'lida dadil harakatlanayotganiga qaramay, qisqa muddatda bunga erisha olishimizga ishonmaganlar bor edi. Yevropa Ittifoqi bilan kelishuv esa barcha shubhani yo'qqa chiqarib, maqsadga erishishimizga ishonchni oshirdi.

Bu, o'z navbatida, Yevropa davlatlarining yangi O'zbekiston islohotlari, izchil taraqqiyoti va rivojlanishiga yuksak ishonchidan dalolat. Ya'ni sayyoramizdagi eng yirik savdo maydoni vakillari bizni o'ziga teng sherik, munosib hamkor sifatida ko'rmoqda. O'z-o'zidan bu hamkorlik mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida ham tub burilish yasashi kutilyapti. Shu boisi, nafaqat yurtimiz rasmiy doiralari, iqtisodchi olimlar, tadbirkorlik subyektlari, mahalliy va xalqaro siyosiy institutlar, balki oddiy yurtidoshlarimiz ham O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga qaratilgan sa'y-harakatlarni faol qo'llab-quvvatlayapti.

JSTga qo'shilish bu, avvalo, katta va yangi bozorga yo'l, yangi hamkor davlatlar bilan barcha sohada keng ko'lamli aloqalar, mamlakatlar uchun keng ochiqlikni anglatadi. Yurtimizning dunyoga yuzlanish siyosati davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Bugungi O'zbekistondunyobilanochiqmuloqotdafaqat milliy manfaatlar emas, balki umuminsoniy

qadriyatlar asosida faol integratsiya siyosatini yuritmoqda". Bryusselga rasmiy tashrif esa yangi O'zbekiston iqtisodiyotining industrial rivojlanish bosqichiga kirgani, ya'ni innovatsiyalar, sanoat modernizatsiyasi va eksport salohiyatini oshirish, xalqaro bozorda raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda barqaror iqtisodiy o'sish tashqi munosabatlarni siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilaganini yaqqol namoyon qildi.

Yangi O'zbekistonning ko'p vektorli siyosati mohiyati shundaki, mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari bir yoki ikki yirik dastlarga bog'liq emas, balki pragmatik va milliy manfaatlariga asoslangan xalqaro sherklik modeliga tayanadi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga qaratilgan keng ko'lamli sa'y-harakatlar esa mamlakatimizning global iqtisodiyotga integratsiyasi, barqaror iqtisodiy o'sishi va tashqi bozorlardagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan muhim strategik yo'nalishdir. Bu milliy tovarlar uchun yangi eksport bozorlari eshigini ochadi, xalqaro savdo tartib-qoidalariga mos faoliyat yuritish imkonini beradi va investorlar uchun kafolatli huquqiy muhit shakllantiradi. Jarayonda transchezaraviy logistikani rivojlantirish, "yagona bojxona hududi" doirasida erkin tovar harakatini ta'minlash va "Made in Uzbekistan" brendini jahon bozorida tanitish kabi yo'nalishlar muhim o'rinda ega.

Keyingi yillarda O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va jahon iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashuvi yo'lida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda aniq raqamlarga e'tibor qaratsak. 2021-yilda mamlakatimiz Yevropa Ittifoqining GSP+ imtiyozli savdo tizimiga kiritildi. Bu yurtimizda ishlab chiqarilgan 6000 dan ortiq turdagi mahsulotga Yevropa bozoriga bojsiz yoki yengillashtirilgan shartlarda kirish imkonini

berdi. Natijada to'qimachilik, kimyo, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti sezilarli darajada o'sdi. 2022-yilda ikki tomonlama savdo hajmi keskin oshib, mamlakatimizning ko'hna qit'aga eksporti 63,9 foiz, import esa 77,1 foiz o'sdi. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi qiymati 2024-yilda 17 milliard dollardan oshib ketdi.

Bryusseldagi erishilgan kelishuvlar natijasida 2030-yilga qadar mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi bilan savdo aylanmasi 1,5 barobar o'sishi, eksport hajmi 15-20 foiz oshishi, qayta ishlash sanoati ulushi esa sezilarli darajada ko'payishi kutilmoqda. Asosiyi, 2026-yilda O'zbekiston nufuzli Jahon savdo tashkilotining to'laqonli a'zosisga aylanishi ehtimoli yuqori.

Yorqin MALIKOV,
O'zbekiston eksportchilar
uyushmasi raisi:



— O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralari rasman yakunlanib, muvaffaqiyatli kelishuvga erishilgani ko'pchilik uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Sababi, ushbu kelishuvga kutilganidan oldin erishilgani juda quvonchli. Bu davlatimiz rahbari boshchiligidagi mas'ullarning ushbu masalaga qattiq tayyorgarlik ko'rgan va belgilangan islohotlar izchil amalga oshirilgani ifodasidir. Jahon maydonida ham e'tirof etilib, tan olinyapti. Keyingi yillarda sa'y-harakatlar tezlashib ketgani ijobiy natijasi beryapti. Vaholanki, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishi yana bir necha yilga cho'zilishi mumkinligi borasida farazlar ham yo'q emas edi. Ammo maqsad sari aniq harakat qilinaypti va natijalarga kutilganidan ham oldinroq erishilyapti.

Albatta, O'zbekistonning yirik savdo tashkilotiga kirishi borasidagi fikrlar turlicha. Shunisi aniqki, bugungi globalashuv davrida hech bir davlat alohida yoki bir nechta mamlakat bilaniga aloqa o'rnatish orqali katta rivojlanishga erisha olmaydi. Hozir dunyo yaxlit global maydonga aylangan va har bir davlat uning bir qismi bo'lishga, unda munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ya'ni tashqi aloqalar qancha keng bo'lsa, rivojlanish shuncha o'sib boraveradi. Ayniqsa, Yevropa juda katta bozorga ega. Unga kirish orqali ana shu maydonning faol ishtirokchisiga aylanamiz.

Shu jihatdan Jahon savdo tashkilotiga a'zolik, avvalo, dunyoning nihoyatda katta bozoriga ochiq yo'l degani. Yaqin vaqtgacha mahsulotlarimiz asosan Markaziy Osiyo davlatlariga chiqarilgan bo'lsa, endi boshqa davlatlarga ham faol kirib boradi. Natijada eksport hajmi karrasiga oshadi. Narxnavo ham yuqori bo'ladi. Masalan, yaqin yillargacha yurtimizdagi tekstil, meva-sabzavot mahsulotlarini asosan cheklangan davlatlarga sotib kelardik. Keyingi yillarda tovarlarimiz 2-3 barobar yuqori narxda Yevropa bozoriga kirib boryapti. Birgina mayyazning bir necha turini eksport qilyapmiz. Odatda mayizni Turkiyaga eksport qilardik. U yerda qayta ishlalib, bir necha barobar qimmat narxda Yevropaga sotiladi. Bugun shu kabi mahsulotlarni o'zimiz, uchinchi davlat ishtirokisiz to'g'ridan to'g'ri Yevropa davlatlariga eksport qilyapmiz. JSTning teng huquqli a'zosi bo'lganimizdan keyin bu jarayon yanada faollashadi.

Boisi, xalqaro iqtisodiy tashkilotga a'zolik savdo munosabatlarida ham afzallik beradi. Eksport jarayonida barcha uchun belgilangan va kelishilgan bo'rtlovi amal qiladi. Qolaversa, mamlakatimizning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi hamda iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Milliy qonunchiligimiz jahon standartlariga moslashtirilib, yurtimizga ko'proq investorlar, mahsulotlar kirib kelishiga xizmat qiladi. Umuman, bunday imkoniyatlarni uzoq sanash mumkin.

Bu tadbirkorlar, oddiy aholi uchun ham manfaatli. Monopollar soyasida qolayotgan korxonalar egalarning yelkasiga o'tib tegib, erkin va ochiq, hamma uchun teng bozor maydonida raqobatga kirishadi. Eksportyor korxonalar soni ortadi. Birgina misol, hozir Yevropa davlatlariga mahsulot eksport qilayotgan mahalliy korxonalar soni mingdan ortiq bo'lsa, bundan 3-4 yil oldin taxminan 200 dan ziyod edi. Ya'ni yildan yilga Yevropaga eksport hajmi ham, eksportchi tadbirkorlar soni ham ortib boryapti.

JSTga a'zolikning yana bir ijobiy tomoni shuki, mamlakatimizga investorlar oqimi ko'payadi. Natijada Yevropa bozorida talabgir mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish jarayoni faollashadi. Bu mahsulotlar bevosita Yevropa bozoriga eksport qilinadi. Jarayonda aholini ish bilan ta'minlash imkoniyati kengayadi, soliq tushumi va valyuta oqimi oshadi. Ya'ni bu bir-biriga bog'liq zanjir bo'lib, umumiy fonda O'zbekistonning jahon bozorida o'z o'rini egallashiga xizmat qiladi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Xalqaro hamkorlik



Maqsud YO‘LDOSHEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

O‘zbekiston so‘nggi yillarda tashqi siyosatdagi ochiqlik, o‘zaro manfaat va ishonch tamoyillariga tayanagan yangi diplomatiya modeli orqali xalqaro nufuzini sezilarli darajada oshiriyapti. Oqilona siyosat yangi O‘zbekistonni jahon hamjamiyatida faol, teng huquqli, ishonchli hamkor sifatida tanitmoqda.

Ayniqsa, yetakchi davlatlar, xususan, AQSH bilan munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi mamlakatimiz tashqi siyosatining izchil va pragmatik yo‘nalishini yaqqol namoyon etadi. Ilgari amalga oshirilgan rasmiy tashriflar va o‘tkazilgan muloqotlar O‘zbekiston — AQSH hamkorligi uchun mustahkam asos yaratib berdi. Bu jarayon tufayli ikki davlat o‘rtasida iqtisodiyot, innovatsiya va ta‘lim sohalarida qator yirik loyihalar yo‘lga qo‘yildi, strategik sheriklikning mazmuni yanada boyidi.

Prezidentimizning yaqinda AQSHga amaliy tashrifi ana shu izchil siyosatning mantiqiy davomi sifatida ikki mamlakat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqqani bilan diqqatga sazovor bo‘ldi. Ya‘ni mazkur tashrif nafaqat iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, balki raqamli iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, transport va ta‘lim sohalaridagi aloqalarni yanada rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa davlatimiz rahbarining AQSHga tashrifi O‘zbekistonning xalqaro siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini, ochiq va pragmatik tashqi siyosatini yana bir bor amalga namoyon etdi.

O‘zbekiston uchun strategik burilish nuqtasi

Davlatimiz rahbarining “C5+1” formatidagi sammitda ishtirok etishi bugungi

Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universiteti hamda Nyu-York shahar universitetlari bilan hamkorlik esa pedagogik innovatsiyalar va akademik almashuvning amaliy mexanizmlarini qo‘llash uchun yo‘l ochdi. Delegatsiya zamonaviy sillabuslarni muvofiqlashtirish va qo‘shma kurslar tuzish borasida aniq kelishuvlarga erishdi.

yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik yo‘nalishlarini yaqqol namoyon etgan muhim voqeadir. Mazkur format 2015-yilda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan ushbu davlat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirishni ko‘zda tutadi. Bugun esa u mintaqaviy integratsiya va global sheriklikning eng samarali diplomatik maydonlaridan biriga aйлandi.

Shuningdek, sammit O‘zbekistonning mintaqada faqat ishtirokchi emas, balki yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surayotgan davlat sifatida tanilishiga xizmat qildi. Davlatimiz rahbarining kelgusi yilda Samarqand shahrida “C5+1”ning navbatdagi sammitini o‘tkazish, doimiy kotibiyatlar tashkil etish, investitsiya va savdo sohasida muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish hamda “Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi” jamg‘armasini tashkil etish kabi dolzarb takliflari bu platformaning mazmunan yangi bosqichga ko‘tarilishini anglatadi.

Muzokaralar asosan mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik, energetika xavfsizligi, transport va savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, shuningdek, ekologiya va suv

resurslaridan oqilona foydalanishga qaratildi. Bu yo‘nalishlarda AQSH bilan hamkorlik nafaqat investitsiya jalb qilish, balki yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning mintaqamizga kirib kelishiga zamin hozirlaydi.

O‘zbekiston bu jarayonda barqaror iqtisodiy rivojlanish, transport infratuzilmasini yangilash va “yashil” energiya sohasidagi hamkorlikni ustuvor vazifa qilib olgan. Masalan, qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirish bo‘yicha AQSH texnologiyalarini jalb etish rejası mintaqaviy barqarorlikka katta hissa qo‘shadi. Shu jihatdan “C5+1” formati nafaqat siyosiy muloqot maydoni, balki amaliyotga qaratilgan iqtisodiy loyihalarni muvofiqlashtiruvchi platforma sifatida ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, sammitda inson kapitalini rivojlantirish va ta‘lim sohasida

tashabbusi O‘zbekistonning diplomatik nufuzi va yetakchilik salohiyatining amaldagi tasdig‘idir. AQSH yetakchisining O‘zbekistonga taklif etilishi esa ochiqlik va ishonch muhitining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Bunday sammitlar nafaqat davlat rahbarlari darajasidagi muloqotni, balki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, do‘stlik va madaniy yaqinlikni mustahkamlaydi. Iqtisodiy hamkorlik yangi ish o‘rinlari, texnologiyalar kirib kelishiga zamin yaratasa, ta‘lim va fan sohasidagi hamkorlik yosh avlodning dunyoqarashini kengaytiradi, zamonaviy bilim va innovatsiyalarga yetaklaydi.

Iqtisodiy o‘shish va strategik imkoniyatlar

Iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik O‘zbekistonning global maydondagi nufuzini



yanada mustahkamlamoqda. Buning yaqqol namunasi sifatida “Uzbekistan Airways”ning “Boeing” kompaniyasi bilan tuzgan 8 milliard dollarlik shartnomasi mamlakat aviatsiya sohasini zamonaviylashtirish yo‘lidagi katta qadam bo‘ldi. Yangi “Boeing 787 Dreamliner” samolyotlari yo‘lovchilar uchun qulay va xavfsiz parvoz imkonini berish bilan birga O‘zbekistonning xalqaro turizm va transport logistikasi markaziga aylanishiga xizmat qiladi. Bu kelishuv shunchaki iqtisodiy shartnoma emas, balki jahon aviatsiya bozorida mamlakat nufuzi va raqobatbardoshligining oshganini ko‘rsatadi.

AQSH bilan muzokaralar natijasida raqamli iqtisodiyot sohasida ham muhim yangiliklar kutilmoqda. Yaqin vaqtlarda “Apple Pay” va “Google Pay” to‘lov tizimlari ishga tushirilishi yurtdoshlarimiz uchun katta qulaylik yaratadi, zamonaviy moliyaviy xizmatlar rivojiga turtki beradi. Bu jarayon raqamli iqtisodiyotni kengaytirish, onlayn savdoni rivojlantirish va biznes muhitini yanada shaffoflashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli akademiya va startap xabarlarini tashkil etish orqali yoshlar uchun yangi imkoniyat eshiklari ochiladi. Ushbu loyihalar yoshlarning innovatsion tafakkuri, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi va raqobatbardosh startaplarni yaratishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ham muhim kelishuvlar amalga oshirildi. “John Deere” kompaniyasidan 300 million dollarlik zamonaviy texnika xarid qilinishi dehqonlar umumiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlayotganini ko‘rsatdi. Bu siyosat nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham yuqori baholamoqda. Shuning uchun ham Prezidentimizning 2026-yilda Samarqandda “C5+1” sammitini o‘tkazish

etadi. Mazkur loyihalar qishloq joylarda ishlab chiqarish madaniyatini yangilab, agrotexnologiya sohasida yangi bosqichni boshlab beradi.

Ikki mamlakat o‘rtasida uran, mis, volfram, molibden va grafit kabi strategik xomashyolarni qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha kelishuvlarga erishilganini ham aytib o‘tish joiz. Bular kelgusida mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish, yuqori texnologiyali mahsulotni eksport qilish salohiyatini oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga zamin hozirlaydi.

Tashrif doirasida tuzilgan bu kelishuvlar nafaqat iqtisodiy manfaat, balki xalq farovonligini ta‘minlashga qaratilgan amaliy choralaridir. Yangi ish o‘rinlari ochilishi, raqamli xizmatlarning kengayishi, zamonaviy texnika va texnologiyalar kirib kelishi, ekologiya sohasidagi barqarorlik — bularning barchasi aholi turmush darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xalqaro hamkorlikka yo‘l

Ushbu tashrif Jizzax davlat pedagogika universiteti delegatsiyasi uchun ham o‘ziga xos ilhom manbai bo‘ldi. Sababi, delegatsiya vakillari davlatimiz rahbarining strategik tashabbuslarini o‘sha yerda kuzatish, zamonaviy oliy ta‘lim muassasalaridagi ilg‘or tajribalarni bevosita ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Masalan, Massachusetts shtatidagi Garvard universiteti dunyodagi eng nufuzli va eng kuchli universitetlardan biri sifatida professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun zamonaviy bilim standartlari hamda innovatsion pedagogik usullar namunasi bo‘ldi. Massachusetts texnologiya instituti vakillari bilan uchrashuv esa sun‘iy intellekt va ilmiy-texnik tadqiqotlar sohasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkonini berdi. Fikrimizcha, bu tajriba universitetimiz uchun kelajakda ilmiy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, professor-o‘qituvchilar va talabalarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlashda juda muhim.

Shuningdek, Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universiteti hamda Nyu-York shahar universitetlari bilan hamkorlik esa pedagogik innovatsiyalar va akademik almashuvning amaliy mexanizmlarini qo‘llash uchun yo‘l ochdi. Delegatsiya zamonaviy sillabuslarni muvofiqlashtirish va qo‘shma kurslar tuzish borasida aniq kelishuvlarga erishdi.

Jorjiya universitetida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya delegatsiya uchun ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda ilg‘or metodikalarni o‘zlashtirish imkonini berdi. Bu universitetimiz uchun pedagogik innovatsiyalarni joriy qilish, talabalarning raqobatbardoshligini oshirish hamda kelgusida shu kabi xalqaro konferensiya va seminarlarni yurtimizda tashkil etish imkoniyatini beradi. Shu tariqa AQSHga safar universitetimiz uchun nafaqat ilmiy va pedagogik aloqalarni mustahkamlash, balki innovatsion yo‘nalishlar va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishda ham muhim qadam bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining AQSHga tashrif strategik sheriklikni mustahkamlash barobarida mamlakatimizdagi Jizzax davlat pedagogika universiteti kabi oliy ta‘lim muassasalari uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Pedagogik innovatsiyalar, qo‘shma kurslar, xalqaro konferensiyalar va ilmiy tadqiqot loyihalarini yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam zamin hozirlandi. Albatta, bu hamkorlik kelgusida universitetimizning xalqaro nufuzini yuksaltirish, talabalar, professorlar salohiyatini oshirish hamda milliy ta‘limni global standartlarga muvofiq rivojlantirishda muhim qadam bo‘ladi.

Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilgan kun ertalabdan ushbu azim kentdan qo‘ng‘iroq bo‘ldi. 3-o‘y avval viloyatda tikansiz maymunjon yetishtirayotgani bilan e‘tiborimizni

tortgan Samarqand davlat universiteti doktranti Noila Jumaqulova “Opa, bizda yana yangiliklar bor”, deb qoldi. Shu kuni UNESCO sammitiga hamohang SamDUda O‘zbekiston — Yaponiya oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining V forumi ham tashkil etildi. Shu bois, suhbatdoshimiz Yaponiyaning Tottori universitetida stajirovka o‘tab kelgani va o‘zi kabi yosh yapon olimlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazayotganidan gap boshladi.

Jarayon



SAMARALI ALOQALAR

ILMIY IZLANISHLARDA HAM MUVAFFAQIYATGA UNDAYAPTI

E‘tibor bersak, so‘nggi yillarda O‘zbekiston — Yaponiya oliy ta‘lim hamkorligi sezilarli rivojlandi. Kadrlar tayyorlash, qo‘shma tadqiqot va ta‘lim loyihalarini amalga oshirish, yapon tilini o‘qitish, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda o‘zbekistonlik fuqarolarning Yaponiya oliygo‘harida tahsil olishi qamrov jihatidan kengaydi. Sukuba, Nagoya, Kioto, Osaka, Tokio xorijiy tillar universiteti va Tokio qishloq xo‘jaligi universiteti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Yapon tilini o‘qitish esa hamkorlikning muhim yo‘nalishiga aylangan. Ayni paytda mamlakatimizdagi oltita oliy ta‘lim muassasasi yapon tili tizimli o‘qitib kelinmoqda.

2010-yilda Nagoya universitetining Toshkentdagi vakolatxonasi ochilgan bo‘lsa, 2015-yilda Toshkent davlat texnika universiteti huzurida tashkil etilgan “O‘zbekiston — Yaponiya yoshlari innovatsiya markazi” kimyo va neft-kimyo kabi ustuvor yo‘nalishlarda qo‘shma tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlamogda. SamDU olimlari 2023-2024-yillarda ikki marotaba “Sakura Science” dasturi grantlarini qo‘lga kiritib, Tottori universitetida ilmiy stajirovka o‘tab keldi. Bugun oliygohning 22 nafar yosh olim,

Samarqand davlat universitetida Tottori universiteti vakolatxonasi ochilgan. U O‘zbekistonning 50 foizdan ortiq qismini egallagan qurg‘oqchil hududlardan samarali foydalanish, chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash orqali aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladigan ishlanmalarni joriy etadi. Bunda Tottori universitetining Yaponiyada yagona hisoblangan Qurg‘oqchil mintaqalarni tadqiq qilish xalqaro markazi va yetakchi olimlari bevosita ishtirok etadi. Zero, xalqaro markaz qurg‘oqchil mintaqalardan ilmiy asoslangan holda samarali foydalanish, xususan, sho‘rlangan va suv taqchil hududlarda dehqonchilikni rivojlantirish bo‘yicha dunyo darajasida e‘tirof etilgan. Shu ma‘noda, endi suv tejoychi zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, chang-to‘zonlarning oldini olish, molekulyar genetikani yutuqlari asosida qurg‘oqchilik va sho‘rga chidamli yangi navlarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlarning birgalikda olib borilishi quvonarli. Shuningdek, agrar xo‘jalik, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologiya sohalarida magistratura hamda doktorantura bosqichlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish rejası amalga

Noilaning safdoshlari — kunchiqar yurtga borgan bo‘lajak olimlar Yaponiya oliygohining Hududiy innovatsiyalar tadqiqot markazi va Qurg‘oqchil mintaqalarni tadqiq qilish xalqaro markazidagi ilmiy laboratoriyalarida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan. Bu bilan ular qishloq xo‘jaligiga yangi innovatsiyalarni olib kirish va samaradorlikni oshirishning ilmiy asoslangan usullari bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarini oshirishga muvaffaq bo‘lyapti.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



magistr va doktorantlari “Sakura Science” dasturi loyihalarida ishtirok etib, Tottori universiteti olimlari bilan yaqin hamkorlikda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirmoqda.

Noilaning safdoshlari — kunchiqar yurtga borgan bo‘lajak olimlar Yaponiya oliygohining Hududiy innovatsiyalar tadqiqot markazi va Qurg‘oqchil mintaqalarni tadqiq qilish xalqaro markazidagi ilmiy laboratoriyalarida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazgan. Bu bilan ular qishloq xo‘jaligiga yangi innovatsiyalarni olib kirish va samaradorlikni oshirishning ilmiy asoslangan usullari bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarini oshirishga muvaffaq bo‘lyapti.

— Yaponiyada biz yuqori darajali professorlar bilan birga ham ilmiy, ham amaliy tajribalar o‘tkazdik. Zamonaviy laboratoriyalar va yuqori texnologiyalar bilan tanishib, maxsus tajribalar bajardik. Olgan natijalarimizni eng so‘nggi dasturlar asosida tahlil qildik. Darslarimiz 10 kun davom etdi. Bu juda qisqa muddat bo‘lishiga qaramay, juda katta ilmiy xaziraga ega bo‘lib qaytdik. Bu bizga kelgusidagi ilmiy ishlarimiz uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

oshsa, hamkorlikdagi tadqiqotlar ko‘lami yanada kengayadi.

Darvoqe, O‘zbekiston — Yaponiya rektorlar V forumi doirasida Samarqand davlat universitetida Sukuba universitetining Aloqa va hamkorlik (Liazon) markazi ochildi. U Yaponiyaning Ta‘lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi tomonidan Sukuba universitetiga topshirilgan “Yaponiyada ta‘lim olishni ilgari surish uchun xorijiy tarmoqlar funksiyalarini mustahkamlash loyihasi (MDH mintaqasi)” doirasida tashkil etildi. Markazning asosiy maqsadi — Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi akademik hamkorlikni chuqurlashtirish, ta‘lim va ilmiy tadqiqot sohalarida samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish, hamda talabalar va xodimlar almashinuvini rivojlantirishdan iborat.

Bu esa Noila Jumaqulova singari yosh tadqiqotchilarning Yaponiyada, yaponiyalik izlanuvchilarning esa O‘zbekistonda emin-erkin ilmiy ishlar olib borishida muhim omil bo‘ladi.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

